XALQ DEPUTATLARI BOG‘OT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-029-12-170-K/24 Bog‘ot tumani

Bog‘ot tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 14-oktabrdagi 01-1239-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrdagi 01/51-1-26807-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining “Xorazm viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-029-12-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 02-7-09/12568-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1. Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “Xorazm viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “Xorazm viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga (keyingi o‘rinlarda qaror deb ataladi) muvofiq, Bog‘ot tumani mahalliy budjetining 2025-yil uchun daromadlari 110 218 821 ming.so‘m, xarajatlari 110 218 821 ming.so‘m prognoz qilinganligi hamda tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2025-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2025-yil uchun tuman mahalliy budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2025-yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2025-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2025-yil uchun tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 665 910,0 ming.so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2025-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida (bundan tuman budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Tuman budjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini amaldagi Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

8. Tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining 2025-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq belgilansin.

9. Tuman hokimining moliya - iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i U.Yoqubov, tuman soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov) va boshqa mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarning o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

10. Mas’ul tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda budjet daromadlari bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash choralarini ko‘rsin.

11. Tuman soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda ushbu soliqlarning o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish ishlarini amalga oshirsin.

12. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (J.Sa’dullayev) tuman soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman hokimining moliya - iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (U.Yoqubov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash choralarini ko‘rsin.

14. Tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi (X.Bobojonov) va tuman soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov) tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (I.Rahimov) bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob - kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

15. Xalq deputatlari tuman Kengashi hamda tuman hokimligi O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

16. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har yili 25-yanvar kuniga qadar budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida mahalliy Kengashlarga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat olib borishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarning to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlar joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

17. Tuman hokimligi axborot xizmati (M.Baxtiyorov)ga tuman soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov) tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (J.Tojiyev) bilan birgalikda hokimlik muassisligidagi gazetalarda, radio va televideniyalarda qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarning e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etish tavsiya etilsin.

18. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

19. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi B.Saparov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi NAZAROV JAHONGIR BAXRAMOVICH

Xalq deputatlari Bog‘ot tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-029-12-170-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Bog‘ot tumani mahalliy budjetining 2025-yil uchun daromadlar reja ko‘rsatkichlari

№	Daromad turlari	ming. so‘m
1	Aylanmadan olinadigan soliq	13 559 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	34 608 020
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 006 000
4	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	12 007 090
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 714 000
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	9 230 111
7	Yuridik shaxslar yer solig‘i	11 068 000
8	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	18 306 000
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	27 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 291 600
11	Ma’lumot uchun* Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5) (VMQ-79)	1 411 400
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	402 000
JAMI		**110 218 821**
1	**Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	-
1	shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar	-

Xalq deputatlari Bog‘ot tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-029-12-170-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Bog‘ot tumani mahalliy budjetidan budjet tashkilotlariga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori

ming.so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Summa
	Xarajatlar jami	**110 218 821,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	110 218 821,0
	shundan:	
1	**Bog‘ot tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**28 386 725,0**
	shu jumladan:	
	- maktabgacha ta’lim- joriy xarajatlar	10 276 933,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
	- umumiy ta’lim- joriy xarajatlar	18 109 792,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
3	**Bog‘ot tuman Madaniyat bo‘limi**	**2 197 504,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 197 504,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
4	**Bog‘ot tuman Bolalar va o‘smirlar sport maktabi**	**6 030 831,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 030 831,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
5	**Bogot tumani Obodonlashtirish boshqarmasi**	**16 843 733,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	16 843 733,0
	shundan: Ichki yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000,0
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
6	**Bog‘ot tuman Suv xo‘jaligi bo‘limi**	**1 518 522,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 518 522,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
7	**Bog‘ot tuman Veterinariya va Chorvachilikni rivojlantirish tizimi tashkilotlari**	**639 801,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	639 801,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8	**Bog‘ot tuman Veterinariya va Chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi APPARAT**	**1 783 454,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 783 454,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
9	**Bogot tumani fermer dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi huzuridagi fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotni yuritish markazi**	**223 436,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	223 436,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
10	**Bog‘ot tuman Kambagallikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	**2 022 026,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 022 026,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
11	**Bog‘ot tuman Xalq qabulxonasi**	**51 052,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	51 052,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
12	**Bog‘ot tuman Hokimligi (Hokim yordamchilari)**	**4 803 805,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 803 805,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
13	**Bog‘ot tuman hokimligi**	**3 045 359,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 045 359,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
14	**Bog‘ot tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 188 920,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 188 920,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
	Xorazm viloyati shahar va tumanlari mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	0,0
15	**Bog‘ot tuman hokimligi (Oila va xotin qizlar bo‘limi)**	**1 934 157,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 934 157,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
16	**Xalq deputatlari Bog‘ot tuman Kengashi kotibiyati**	**263 279,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	263 279,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
17	**Yoshlar ishlari agentligi Bog‘ot tuman bo‘limi**	**4 865 316,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 865 316,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
18	**"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari**	**1 990 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 990 000,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
19	**Bog‘ot tuman Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»**	**23 100,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	23 100,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
20	**Bog‘ot tuman hokimligi (Ijtimoiy ko‘niktirma markazi)**	**134 242,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	134 242,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
21	**Bog‘ot tuman mahalliy budjetining Zaxira jamg‘armasi**	**1 665 910,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 665 910,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
22	**Bog‘ot tuman hokimligi (Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi)**	**26 657 953,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	26 657 953,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
22	**Bog‘ot tuman hokimligi (Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi Mening maktabim)**	**2 949 696,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	2 949 696,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

Xalq deputatlari Bog‘ot tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-029-12-170-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/r	Tuman nomi	Aylan madan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslar dan olinadigan daromad solig‘i (Hududiy soliq to‘lovchi lar)	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Alkogol maxsulotlari va benzinni, dizel yonilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchi larga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i (Hududiy soliq to‘lovchilar)	Yuridik shaxslar ning mol-mulkiga solinadi gan soliq (Hududiy soliq to‘lovchi lar)	Jismoniy shaxslar dan olinadi gan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslar dan olinadigan yer solig‘i (Hududiy soliq to‘lovchi lar)	Jismoniy shaxslar dan olinadi gan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganli k uchun soliq	Suv resurs laridan foydalanganli k uchun soliq (Yirik va Hududiy soliq to‘lovchilar)	Davlat aktivlarini foydalanish ga (ijaraga) berishdan qonunchilik da belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar
1	Bog‘ot tumani	100	58	100	59	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Bog‘ot tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-029-12-170-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Bog‘ot tumani mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming.so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
Bog‘ot tumani	110 218 821,0	110 218 821,0

Xalq deputatlari Bog‘ot tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-029-12-170-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Bog‘ot tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining 2025-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming.so‘mda

T/r	Tuman	Miqdori
1	Bog‘ot tumani	870 000,0